




**SURXONDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SURXONDARYO  
VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI  
2022- YIL YANVAR-DEKABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




Tel.: 76-225-65-76

[www.surxonstat.uz](http://www.surxonstat.uz)


## Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar-dekabr oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oyida viloyat korxonalari tomonidan 7298,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 104,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 88,5 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 10,4 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 7,4 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 214,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,9 % ini tashkil etdi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	275,1	282,3	7,2
Neft, ming t.	86,3	84,5	-1,8



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	22,0	21,9	-0,1
Chaqiq tosh, ming t.	82,8	61,7	-21,1

### Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6458,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 88,5 % ini tashkil etdi.


2021- yil yanvar-dekabr

90,3 %

2022- yil yanvar-dekabr




88,5 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,9 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,6 % ( 0,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 22,6 % ( 21,9 %) va quyi texnologiyali – 65,0 % ( 66,2 %)ni tashkil etdi.









Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,1 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,7 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 36,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 40,5 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,7 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,1 % (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,9 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da








2022- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 15,0 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 71,2 % ga kamaygan), 15,7 ming tonna boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (65,4 % ga kamaygan), 2,5 ming tonna lint (32,0 % ga kamaygan), 61,1 ming tonna neft bitumi (99,0 % ga kamaygan) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	17,6	15,0	-2,6
Paxta tiviti (lint), ming t.	7,5	2,5	-5,0
Neft bitumi, ming t.	57,1	61,1	4,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	118,1	101,5	-16,6
Saryog', t.	2,0	1,3	-0,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	3,9	3,2	-0,7

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 2,0 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 98,5 bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi esa, 36,4 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 50,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 7,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,8 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 648,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 20,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 1,3 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 1473,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 76,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 37,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 36,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 112,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 41,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 100,7 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2678,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 %, fizik hajm indeksi 73,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 274,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 74,9 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 98,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 29,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 99,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,4 % ni, fizik hajm indeksi 105,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 541,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 256,8 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,7 % ni, fizik hajm indeksi 130,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 47,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 511,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	180,8	232,3	51,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	35,6	33,6	-2,0

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 114,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini) tashkil etdi.


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-dekabr	2022- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	4,3	4,6	0,3
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	24,6	29,6	5,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 57,9 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,6 mlrd. so'm shuningdek, 29,6 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2632,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 36,1 % ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-dekabr

49,7 %

2022- yil  
yanvar-dekabr

47,5 %

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil  
yanvar-dekabr

50,3 %

2022- yil  
yanvar-dekabr



52,5 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,7 % (2021- yil yanvar-dekabr oylarida 1,9 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rchi tumani 15,3 % ni, 13,8 % Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib Termiz sh. 15,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (100,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Termiz (107,5 %) , Boysun (107,1 %) va Qiziriq (105,4 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahrida 15,6 % ni, Sho'rchi tumani 15,3 % ni, Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib 13,8 % ni tashkil etdi.








**Surxondaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**


Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib 14,2 % ni, shuningdek, Sho'rchi tumani 11,2 % ni, Sariosiyo tumani 10,7 % ni, Termiz shahri esa 17,7 % ni tashkil etdi.

**Surxondaryo viloyati**



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz shahri (6722,1 so'm), Termiz (4572,4 ming so'm) , Jarqo'rg'on (4504,0 ming so'm) hamda Sho'rchi (3707,1 so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2630,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Surxondaryo viloyati

2020- yil

2004,8 ming so'm

2020- yil yanvar-dekabr

2021- yil

2502,2 ming so'm

2021- yil yanvar-dekabr

2022- yil

2630,2 ming so'm

2022- yil yanvar-dekabr



01

2020- yil

104,5 %

2020- yil yanvar-dekabr

02

2021- yil

109,1 %

2021- yil yanvar-dekabr

03

2022- yil


102,0 %

2022- yil yanvar-dekabr

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 948,5 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 2130,0 ming so'mni, Termiz tumanida – 2032,7 ming so'mni, Sho'rchi tumanida – 1825,6 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida – 1577,4 ming so'mni tashkil etdi.

**Surxondaryo viloyati**




o'sish sur'ati

ming so'm

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3128,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 42,9 % ni tashkil etdi.



### Surxondaryo viloyati

2020- yil

2608,2 mlrd. soʻm

2020- yil yanvar-dekabr

2021- yil

3144,1 mlrd. soʻm

2021- yil yanvar-dekabr

2022- yil

3128,8 mlrd. soʻm

2022- yil yanvar-dekabr



2020- yil

47,3 %

2020- yil yanvar-dekabr

2021- yil

46,9 %

2021- yil yanvar-dekabr


2022- yil

42,9 %

2022- yil yanvar-dekabr

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4853 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 849 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,5 % i) Termiz shahriga, 546 tasi (11,3 %) Denov tumaniga, 389 tasi (8,0 %) Sho'rchi tumaniga, 321 tasi (6,6 %) Qumqo'rg'on tumaniga va 319 tasi (6,6 %) Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 20 ta loyiha bo'yicha 112,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 57 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>
<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	<b>36</b>	<b>20</b>
<i>Korxonalar soni, birlikda</i>	<b>33</b>	<b>20</b>
<i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm</i>	<b>106,3</b>	<b>112,2</b>
<i>Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollari</i>	<b>0,030</b>	<b>-</b>
<i>Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlikda</i>	<b>132</b>	<b>57</b>